
Modern education and development
KOMPRESSOR KONSTRUKSIYASI TURLARI VA ULARNI
SANOATDA QO`LLANILISHI

Хайитов Шухрат Шокир ўғли

Бухара нефт ва газ саноат колледжи

ишилаб чикариши та'лим устаси

E-mail: shuxrathayitov165@gmail.com Тел: +99(893) 681 8855

Бафоев Асқар Анварович

Бухара нефт ва газ саноат колледжи

ишилаб чикариши та'лим устаси

Тел: +99891 310 52 62

Рахматов Абдулазиз Қосим ўғли

Бухара нефт ва газ саноат колледжи

ишилаб чикариши та'лим устаси

Тел: +99899 046 29 26

Annotatsiya: Kompressorlarni ishlash prinsipi, vazifasi, bosimi, sovutish usuli, yuritma dvigatecli bo`yicha ma`lumotlar berish.

Kalit so‘zlar: Kompressor, sovutish mashinalari elektrodvigatel, ichki yonuv dvigatecli, gaz turbinasi

Bugungi kunda kompressorlar barcha ishlab chiqarish sohalarida eng ko`p foydalilaniladigan va ajratib bo`lmas qurilma hisoblanadi. Ular kimyo sanoatida, mashinasozlikda, metallurgiyada, temir yo`llarida, aviatsiya, faz turbinali qurilmalarda, sovutish mashinalarida va boshqa ko`plab sohalarda qo`llanilib kelinmoqda.

Kompressorlar gazsimon moddalarni bir joydan ikkinchi joyga uzatuvchi va bosimini oshirib beruvchi energetik mashinasi hisoblanadi. Kompressorlar konstruksiyasi va turiga qarab ko`p turga bo`linadi, bosimi va unumdorligi jihatidan bir-biridan farqlanadi.


Modern education and development

- Kompressorlar quyidagicha sinflanadi:
- Ishlash prinsipi (porshenli, rotorli);
- Vazifasiga ko`ra;
- Bosim chegarasi bo`yicha (vakuum, kichik bosimli);
- Sovutish usuli bo`yicha;
- Yuritma dvigateli bo`yicha.

Ishlash prinsipi bo`yicha kompressorlar sig`im va parrakli turlarga bo`linadi. Sig`im kompressorlari – bunda siqish jarayoni ishchi kameralarda sodir bo`lib, o`zining hajmini davriy o`zgartirib boradi. Parrakli kompressorlar – gaz oqimi aylanayotgan parraklar orqali o`tib bosim hosil qiladi.

- **Vazifasiga ko`ra kompressorlar** sanoat tarmoqlari bo`yicha sinflanadi, ular turiga qarab kimyoviy, energetik va umumiy foydalanish uchun mo`ljallangan. Siqilayotgan gaz turiga qarab havoli, kislorodli, xlorli, azotli, gelyqli va boshqalarga bo`linadi.
- **Bosim chegarasiga ko`ra kompressorlar** vakuumli va kichik bosimli turlariga bo`linadi. Kichik bosimli kompressorlar – gaz bosimi 0,15 dan 1,2 MPa da, o`rta – 1,2 dan 10 MPa, yuqori – 10 dan 100 MPa va bosimi o`ta yuqori bo`lgan gazlarni siqishga mo`ljallangan.

Kompressorlarsovutish usuli bo`yicha – suvli va havo orqali sovutiladigan turlarga bo`linadi.




rasm. Kompressorlarni unumdarlik va bosimi bo`yicha sanoatda qo`llanilishi sxemasi.

Kompressor yuritma dvigateli bo`yicha – elektrodvigateli, ichki yonuv dvigateli, bug`li yoki gaz turbinasi orqali ishlovchi turlarga bo`linadi. Odatda, montaj ishlarini va gabarit o`lchamlarini soddashtirish uchun elektrodvigatellardan foydalilanadi. Bunda kompressor vali elektrodvigatel rotori hisoblanadi. [1]

Sanoatda kompressorlarni unumdarligi va bosimi bo`yicha qo`llanilish sxemasi 1-rasmida keltirilgan bo`lib, bu ko`rsatkichlar doimiy bo`lmaydi, ya`ni kompressorlarning mukammallashuvi bilan o`zgarib turadi.

So`nggi yillarda kompressor turlariga yangi, o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lgan spiralsimon kompressor kirib keldi. Bu kompressorning matematik modeli

Y.A. Paranin, A.M. Karchevskiy, R.Z. Dautov, M.M. Karchevskiy, E.M. Fedotovlar tomonidan ishlab chiqilgan. Spiralsimon kompressor chizmasi 2- rasmida ko`rsatilgan. [2]



2-rasm. Spiralsimon kompressor chizmasi.

Bir pog`onali spiralsimon kompressorda gazning bosimini 8-10 marta siqish natijasidagi bosimning oshishi gazning va elementlarning haroratining oshishiga sezilarli ta'sir ko`rsatadi, shu jumladan spirallarning ham. Gaz va konstruksiya elementlarining sovutilishi mashinaning f.i.k. ni, uzatish koeffitsiyentini oshirish imkonini beradi, bosimning keskin oshib ketishi, spirallar harorati (belgilangan rejimdagi ish jarayonida bu muhim) va solishtirma quvvatni kamaytiradi, bu o`z navbatida konstuksiyaning murakkablashishiga va uning tan narxiga ta'sir o`tkazadi.

Adabiyotlar:

1. A.K. Mixaylov, V.P. Voroshilov “Kompressor mashinalari” OTM lar uchun darslik. M.: Energoatomizdat – 1989-y, 288 bet. [1]
2. Ilmiy jurnal “Kompressor texnikasi va pnevmatikasi” 01.02.2010 sanadagi soni. ISSN 0865-5865. [2]